

Innovation and Interactive Learning. – London: Pinter, 1992. – 342 p.

4. Freeman C. Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. – London: Pinter, 1987. – 155 p.

5. Cooke P. Regional Innovation Systems: Competitive Regulation in the New Europe // Geoforum. – 1992. – Vol. 23, No. 3. – P. 365–382.

6. OECD. Oslo Manual: Guidelines for Collecting and Interpreting Innovation Data. 4th ed. – Paris: OECD Publishing, 2018. – 256 p.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi PF-60-son Farmoni “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2022.

8. Asheim B.T., Coenen L. Knowledge Bases and Regional Innovation Systems: Comparing Nordic Clusters // Research Policy. – 2005. – Vol. 34, No. 8. – P. 1173–1190.

9. Etzkowitz H., Leydesdorff L. The Dynamics of Innovation: From National Systems and «Mode 2» to a Triple Helix of University–Industry–Government Relations // Research Policy. – 2000. – Vol. 29, No. 2. – P. 109–123.

10. World Bank. World Development Report 2021: Data for Better Lives. – Washington, DC: World Bank, 2021. – 359 p.

11. Fritsch M., Wyrwich M. Regional Trajectories of Entrepreneurship, Knowledge, and Growth. – Cham: Springer, 2019. – 194 p.

12. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Innovatsion faoliyat bo‘yicha hisobot. – Toshkent, 2023.

Mahliyo TOLIPOVA,
O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi huzuridagi
“Turizmni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti” (PhD) doktoranti

BARQAROR TURIZM RIVOJLANISHIDA TASHKILY-IQTISODIY BOSHQARUV MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada barqaror turizmni rivojlantirish uchun tashkiliy va iqtisodiy boshqaruv mexanizmini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Unda iqtisodiy nazariyada “mexanizm” tushunchasiga turli yondashuvlar (klassik, Keyns va institutsional) tahlil qilinadi va turizm sohasi uchun mos keladigan kompleks yondashuv asoslanadi. Turizmdagi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning huquqiy, infratuzilmaviy, moliyaviy, axborot va kadrlar jihatlari tizimli ravishda o‘rganiladi. Barqaror turizmni ta‘minlash uchun boshqaruvni muvofiqlashtirish, iqtisodiy rag‘batlantirish, raqamli transformatsiya va atrof-muhitni nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zarurati ham asoslanadi. Tadqiqot natijalari turizm sohasining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: tashkiliy va iqtisodiy mexanizm, infratuzilma, institutsional muvofiqlashtirish, raqamli boshqaruv platformalari.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-экономического механизма управления в развитии устойчивого туризма. Анализируются различные подходы к концепции «механизма» в экономической теории (классический, кейнсианский и институциональный), и обосновывается комплексный подход, подходящий для туристического сектора. Систематически раскрываются правовые,

инфраструктурные, финансовые, информационные и кадровые аспекты организационно-экономического механизма в туризме. Также обосновывается необходимость улучшения координации управления, экономических стимулов, цифровой трансформации и механизмов экологического контроля для обеспечения устойчивого туризма. Результаты исследования служат обеспечению устойчивого и конкурентоспособного развития туристического сектора.

Ключевые слова: организационно-экономический механизм, инфраструктура, институциональная координация, цифровые платформы управления.

Abstract. This article examines the improvement of the organizational and economic management mechanism for sustainable tourism development. It analyzes various approaches to the concept of "mechanism" in economic theory (classical, Keynesian, and institutional), and substantiates a comprehensive approach suitable for the tourism sector. The legal, infrastructural, financial, informational, and personnel aspects of the organizational and economic mechanism in tourism are systematically explored. The need for improved coordination of governance, economic incentives, digital transformation, and environmental control mechanisms to ensure sustainable tourism is also substantiated. The results of the study contribute to the sustainable and competitive development of the tourism sector.

Keywords: organizational and economic mechanism, infrastructure, institutional coordination, digital management platforms.

Iqtisodiy nazariya va amaliyotda "mexanizm" tushunchasi iqtisodiy jarayonlarni tashkil etish, boshqarish hamda tartibga solish bilan bog'liq muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi. T.Jo'rayev o'zining "Iqtisodiyot nazariyasi" darsligida "iqtisodiy mexanizm" atamasiga ta'rif berar ekan, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi va bir birini taqozo etuvchi dastak va vositalar, unga iqtisodiy rag'bat, iqtisodiy faoliyatni tashkil etish, hamda tartibga solish usullari kiradi, deb aytadi⁹⁵. Shu sababli, mexanizm iqtisodiy jarayonlarning ichki ishlash mantig'ini ifodalovchi tushuncha sifatida qaraladi. Ammo ilmiy adabiyotlarda "mexanizm" tushunchasiga nisbatan yondashuvlar bir biridan farq qiladi. Iqtisodiy nazariyaning klassik yo'nalishida "mexanizm" tushunchasi asosan bozor qonunlari orqali izohlanadi. Jumladan, A.Smit iqtisodiy jarayonlarning muvozanatlashuvi individual manfaatlar asosida shakllanishini ta'kidlab, "invisible hand" – ko'rinmas qo'l nazariyasi orqali iqtisodiy mexanizmni bozorning o'z-o'zini tartibga solish tizimi sifatida talqin etadi⁹⁶. Smitning ushbu yondashuvi bozor munosabatlarini asoslab bergani bilan katta ahamiyat kasb etadi, lekin mazkur qarash real iqtisodiyotda, ayniqsa turizm kabi ko'p tarmoqli tizimlarda davlat va shu kabi boshqa qator tashkiliy omillarning rolini yetarli darajada hisobga olmaydi.

Keyns ta'limoti vakillari mexanizm atamasiga boshqacha ta'rif berib, iqtisodiy jarayonlarda davlatning faol ishtirokining ahamiyati haqida so'z yuritishadi. Xususan, J.M.Keyns iqtisodiy mexanizmni davlat va bozor elementlarining o'zaro uyg'unligi, ya'ni bozor o'zini – o'zi to'liq tartibga sola olmasligi, albatta davlat aralashuvi muhim ekanini ta'kidlaydi⁹⁷. Masalan, turizm sohasida ko'radigan bo'lsak, bu yalpi talablarga juda sezgir soha hisoblanadi, ya'ni iqtisodiy inqiroz aholi daromadlarini

⁹⁵ T.T.Jo'rayev, M.A.Hamdammov. Iqtisodiyot nazariyasi. (Darslik). "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2024. 504 bet.

⁹⁶ Smith, A. (1998). An inquiry into the nature and causes of the wealth of nations: a selected edition. Oxford University Press, USA.

⁹⁷ Keynes J.M. (1936/2007). The General Theory of Employment, Interest and Money. Palgrave Macmillan.

qisqartirishga sabab bo'lsa, o'z – o'zidan turistik xizmatlarga ham talab keskin pasayadi. Bu esa o'z navbatida mexmonxona, transport, ovqatlanish kabi tarmoqlarda ham talab sustlashishi va bandlikni kamayishiga sabab bo'ladi.

Bunday vaziyatda bozor mexanizmlarining o'zi tezda talabni tiklay olmaydi. Yuqorida aytilgan Keyns ta'limoti esa bunday vaziyatda davlatning aralashuvi zarur deb hisoblaydi. Davlat tomonidan ichki turizmni rag'batlantirish, turizm subyektlarini qo'llab – quvvatlash, subsidiyalar orqali iqtisodiy pasayishning chuqurlashishini oldini olish mumkin. Biroq, bizning fikrimizcha ushbu yondashuv iqtisodiy inqirozlarning oldini olish nuqtayi nazaridan muhim bo'lsa-da, unda tarmoqlararo va hududiy rivojlanish masalalari, xususan turizm sohasiga xos tashkiliy muvofiqlashtirish jihatlari yetarli darajada yoritilmagan.

Institutsional iqtisodiyot vakillaridan Duglas Nort "mexanizm" tushunchasini iqtisodiy institutlar bilan bevosita bog'laydi. D.Nort iqtisodiy mexanizmni rasmiy qoidalar, qonunlar va norasmiy me'yorlar orqali iqtisodiy subyektlar xatti-harakatlarini muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida talqin etadi⁹⁸. Ushbu yondashuv mexanizmning institutsional asoslarini ochib berishi bilan ahamiyatli bo'lsa-da, unda iqtisodiy rag'batlantirish va moliyaviy mexanizmlarning amaliy ta'siri ikkinchi darajaga tushib qoladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham "mexanizm" tushunchasiga oid ko'plab izlanishlar olib borilgan. Jumladan, Sh.Sh. Shodmonov iqtisodiy mexanizmni iqtisodiy jarayonlarni boshqarish, tartibga solish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy hamda tashkiliy vositalar majmui sifatida izohlaydi⁹⁹. Ushbu ta'rif mexanizmning amaliy jihatlarga urg'u berishi bilan ajralib turadi. Biroq, unda bozor mexanizmlari va raqobat muhitining roli yetarli darajada ochib berilmagan. Shuningdek, Mamatov va Djamatovlar ham mintaqaviy turizmni rivojlantirishda mexanizmlarning ahamiyatini, hududlararo resurslar taqsimoti, infratuzilma rivoji va boshqaruv tizimlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishadi. Ularning xulosasiga qaraganda, samarali mexanizm xizmatlar sifatini oshirish va hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tezlashtirishga yordam beradi¹⁰⁰. Yana bir hamyurtimiz Dehqonov Burxon esa turizmda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni iqtisodiy jarayonlarning normal borishiga, iqtisodiy tizim va uning obyektleri barqaror faoliyatda bo'lishini qo'llab-quvvatlashga, turizm faoliyatini yanada rivojlanishiga, uzilishlarning, qonunlar, normativ ko'rsatmalar, shartnomalar buzilishlarining oldini olishga ko'maklashadigan sharoitlar yaratish choralari va vositalarining yig'indisi, deya ta'riflaydi¹⁰¹ va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning qanday yo'llar bilan ishlashi va ta'minlanishini ko'rsatadigan beshta asosiy yo'nalishlarini misol keltiradi.

Jadvalda yoritilgan asosiy besh ta'minot yo'nalishining har biri turizm tizimining barqaror ishlashi uchun muhim bo'g'in hisoblanadi. Huquqiy ta'minot turizm faoliyatining qonuniy asosda olib borilishini, subyektlar o'rtasidagi

⁹⁸ North, D.C. (1990). *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge university press.

⁹⁹ Sh.S., G'ofurov U.V. *Iqtisodiyot nazariyasi: darslik*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2005. – 784 b.

¹⁰⁰ Atajanovich, M. A., & Ugli, D. B. A. (2023). Improving the organizational and economic mechanism of regional tourism. *International Journal of Business Diplomacy and Economy*, 2(5), 86–90. <https://doi.org/10.51699/ijbde.v2i5.1740>

¹⁰¹ Dehqonov, B. R. (2025). Milliy turizmni boshqarishning tashkiliy mexanizmining tamoyillari. *University Research Base*, 32-36.

munosabatlarning tartibga solinishini ta'minlash, infratuzilmaviy ta'minot tarixiy-madaniy obyektlar, yo'llar, mehmonxonalar, transport va xizmat ko'rsatish tarmoqlari orqali turizm mahsulotining real shakllanishiga sharoit yaratadi. Investitsiyalarni jalb etish, loyihalarni moliyalashtirish va turizm subyektlarining iqtisodiy barqarorligi moliyaviy ta'minot tomonidan amalga oshirilsa, turistlarga xizmatlar, marshrutlar va imkoniyatlar haqida to'liq va tezkor ma'lumot yetkazish orqali talabni shakllantirishda axborot ta'minoti muhim ro'l o'ynaydi. Kadrlar bilan ta'minlash esa turistik xizmatlar sifatini belgilovchi asosiy omil bo'lib, malakali mutaxassislar orqali turizm sohasining raqobatbardoshligini oshiradi.

1-jadval

Turizm tashkiliy-iqtisodiy mexanizmning funksional ta'minot yo'nalishlari¹⁰²

Qonun jihatidan ta'minlash	turistik faoliyatning normal borishiga ko'maklashadigan qonunlar ishlab chiqish
Infratuzilma jihatidan ta'minlash	tarixiy-madaniy turizmni tashkil etish uchun umumiy sharoitlarni yaratuvchi va ta'minlovchi moddiy- texnik elementlarning mavjud bo'lishi
Moliyaviy ta'minlash	investisiya manbalarini aniqlash va madaniy turizm sohasida qulay investisiya iqlimini yaratish
Axborot ta'minoti	madaniy turizmni tashkil etish va yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda turistlarni axborot bilan ta'minlash
Kadrlar bilan ta'minlash	sifatli turistik xizmatlar ko'rsatishga layoqatli bo'lgan malakali oliy, o'rta va quyi bo'g'in xodimlarini o'z vaqtida va doimiy tayyorlash hamda qayta tayyorlash

Yuqoridagi nazariy yondashuvlardan kelib chiqqan holda bilishimiz mumkinki, "tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmi" tushunchasi faqat bozor qonunlari yoki davlat aralashuvi bilan cheklanmaydi. U iqtisodiy rag'batlar, institutsional muhit, huquqiy asoslar, boshqaruv tizimi, moliyaviy vositalar va tashkiliy tuzilmalarning o'zaro uyg'unlashgan tizimini anglatadi. Ayniqsa, turizm sohasida mazkur mexanizm ko'p darajali va ko'p subyektki xususiyatga ega bo'lib, unda davlat organlari, xususiy sektor, mahalliy hamjamiyat va xalqaro tashkilotlar manfaatlari kesishishini ko'rishimiz mumkin.

R.Butlarning turizm hududlari hayotiy sikli nazariyasida ham turizm rivojlanishining muayyan bosqichlarida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi¹⁰³. Agar boshqaruv va tartibga solish mexanizmlari o'z vaqtida modifikatsiya qilinmasa, turistik hudud degradatsiyaga uchrashi, resurslardan haddan tashqari foydalanish natijasida barqarorlik izdan chiqishi mumkin. Bu esa tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni doimiy ravishda monitoring qilish va isloh etib borishni talab etadi.

Barqaror turizm rivojlanishida tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini takomillashtirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Ma'lum bo'ladiki, turizm ko'plab tarmoqlar bilan uzviy bog'liq bo'lganligi

¹⁰² Dehqonov, B. R. (2025). Milliy turizmni boshqarishning tashkiliy mexanizmining tamoyillari. University Research Base, 32-36.

¹⁰³ Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources // Canadian Geographer. – 1980. – Vol. 24(1). – P. 5–12

sababli, vazirlik va idoralar o'rtasidagi vakolatlarning aniq taqsimlanishi hamda hududiy boshqaruv organlari bilan samarali hamkorlik tizimini shakllantirish zarur. Ikkinchidan, iqtisodiy rag'batlantirish vositalarini, ya'ni soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini keng qo'llash orqali turizm infratuzilmasiga investitsiyalar oqimini ko'paytirish mumkin. Shuningdek, har bir hududning turistik salohiyati, resurs bazasi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitidan kelib chiqib, differensial rivojlanish modellari ishlab chiqilishi lozim. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish va hududlar o'rtasidagi nomutanosiblikni kamaytirishga xizmat qiladi. Qolaversa, zamonaviy turizm bozorida raqamli platformalar, onlayn bronlash tizimlari va ma'lumotlar bazalari boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tadqiqotlarida ham turizmni boshqarishda raqamli transformatsiya barqarorlikni ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etilgan¹⁰⁴. Turizm resurslaridan foydalanishda ekologik standartlar, kvotalar va monitoring tizimlarini joriy etish barqaror rivojlanishning asosiy sharti hisoblanar ekan, ushbu tizim ham o'z – o'zidan uzluksiz tarzda takomillashtirilib borilishni taqozo etadi. Aks holda, qisqa muddatli iqtisodiy manfaat uzoq muddatli salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.



1-rasm. Barqaror turizm rivojlanishida tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, barqaror turizm rivojlanishida tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. U iqtisodiy, tashkiliy, institutsional va ekologik omillar uyg'unligini ta'minlagan holda, turizm tizimining barqaror ishlashi va hududiy iqtisodiy o'sishga xizmat qilishi lozim. Faqat shundagina turizm sohasi iqtisodiy o'sish drayveri sifatida barqaror va uzoq muddatli natijalarni ta'minlay oladi

¹⁰⁴ OECD. Tourism Trends and Policies. – Paris: OECD Publishing, 2020.